

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDA QO'SHMA BIZNESNI TASHKIL QILISHNING STRATEGIK ALYANS MODELI

Abdullayev Olimjon G'ayratovich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
ORCID: 0009-0004-8580-5859
agolider1987@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida qo'shma biznesni tashkil qilish modeli va klasterlash jarayonlarining asoslari ko'rsatib o'tilgan. Biznesni tashkil etishda, xo'jalik yurituvchi subyektlar bir-biriga birlashuvining rivojlanishiga klasterlashning sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma biznes tashkil etishning nazariy bilimlar berilgan.

Kalit so'zlar: klasterlash jarayonlari, qo'shma biznesni tashkil etish, biznes modeli, konvergensiya jarayonlar, divergentsiya, optimal tartib, tizim samaradorligi.

СТРАТЕГИЧЕСКАЯ АЛЬЯНСНАЯ МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ СОВМЕСТНОГО БИЗНЕСА СУБЪЕКТОВ ЭКОНОМИКИ

Абдуллаев Олимжон Гайратович
Университет экономики и педагогики

Аннотация. В статье показана модель организации совместного бизнеса хозяйствующих субъектов и основы процессов кластеризации. Обосновано, что кластеризация оказывает существенное влияние на развитие хозяйствующих субъектов при организации бизнеса. Даны теоретические знания по организации совместного бизнеса между хозяйствующими субъектами.

Ключевые слова: процессы кластеризации, совместная организация бизнеса, бизнес-модель, процессы конвергенции, дивергенция, оптимальный порядок, эффективность системы.

STRATEGIC ALLIANCE MODEL OF ORGANIZING JOINT BUSINESS BETWEEN ECONOMIC SUBJECTS

Abdullayev Olimjon Gayratovich
University of Economics and Pedagogy

Annotation. The article shows the model of joint business organization between economic entities and the basics of clustering processes. It is justified that clustering has a significant impact on the development of economic entities in the organization of business. Theoretical knowledge of joint business organization between economic entities is given.

Key words: clustering processes, joint business organization, business model, convergence processes, divergence, optimal order, system efficiency.

Kirish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma biznesni tashkil etishning eng muhim masalalaridan biri uni tashkil etish qadamlari hisoblanadi. Ya'ni ushbu qo'shma biznes ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning variantidir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, shu jumladan sub'ektlararo bozorda qo'shma biznes yuritishning eng samarali variantini topish klasterlash jarayonining ijobiy ta'siriga erishish muhim ahamiyatga ega. Klasterlash jarayonida ijobiy natijalarga erishish uchun, klasterlashning salbiy oqibatlarini oldini olish lozim. Chunki yangi kiritilayotgan har bir jarayonning salbiy oqibatlari yoki yomon tomonlari mavjud bo'lishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni klasterlashda quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida aloqa yo'qligi;
- sektorlarning o'zaro mosliklari;
- yer manbalari va resurslarining chekloviligi;
- huquqiy muammolar;
- tadbirkorlik madaniyati;
- ishtirokchilar orasida aloqa yo'qligi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida aloqa yo'qligi, bu klasterlash jarayonining samarali olib borilishini qo'shishga imkon beradigan muammolarga olib kelishi mumkin. Sektorlarning o'zaro mos emasligi klasterlar o'zlarini ajralib turishi jarayonida muammo yuzaga kelishi mumkin. Bu sektorlarning bir-biriga qarshi jalb etilishiga olib keladi. Yer manbalari va resurslarining cheklanganligi, bu klasterlashni samarali olib borishni to'xtatishga sabab bo'ladi. Yer manbasining chekloviligi, transport, kommunikatsiyani rivojlanishiga ta'sir qiladi. Huquqiy muammolar tartibot, litsenziyalash, va xizmat ko'rsatishga oid huquqiy masalalar klasterlashni samarali olib borishni to'xtatishga olib kelishi mumkin. Agar tadbirkorlik madaniyati yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, ishtirokchilar o'rtasidagi ko'rsatkichlar va aloqa yo'qligi salbiy ta'sir qilishi mumkin. Yaxshi ishtirokchilik madaniyati klasterlashning samarali olib borilishini ta'minlashga yordam berishi mumkin.

Bu oqibatlarni tushunib chiqish va ularni oldini olish, klasterlashning samarali olib borilishini ta'minlash uchun ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Rossiyalik olimlar ham o'z ilmiy izlanishlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma beznisni tashkil etish faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarini o'rganish, shuningdek, global iqtisodiy tizim klasterlash jarayonlarning raqamli transformatsiyasi sharoitida, ilg'or texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion uslubiy yechimlar va texnologik mexanizmlarni ishlab chiqishga bir necha bor o'ringanlar.

Mahalliy mutaxassislarining kopleks ilmiy izlanishlari, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarida klasterlash jarayonidan samarali foydalanish masalalarini hal etishga bag'ishlangan. Mahalliy olimlarimiz: Alimov, Xayitmatov, Begalov, Gulyamov, Shermuxamedov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlari va sohalarida, jumladan statistika sohasida zamonaviy klasterlash jarayonidan foydalanish metodologiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

O'rganilgan ko'plab ilmiy manbalarda tabiiy resurslarni izlanishlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma beznisni tashkil soliqlarining mohiyatini ochib berishda ularning xususiyatlari tadqiq etilgan.

Tabiiy resurs soliqlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlardan izlanishlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma beznisni tashkil tabiiy resurs soliqlarining har birida o'ziga xos tarzda mujassamlashgan.

Jo'rayevning (2013) qayd etishicha, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma beznisni tashkil etishda muammolari sifatida soliqlarning boshqa turlaridan farqli o'laroq, resurs

soliqlari o'ziga xos xususiyatlarga ega: o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ular renta to'lovidir. Boshqacha aytganda, bu qayta tiklanmaydigan tabiiy, yer va suv zaxiralaridan foydalanganlik uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma beznisni tashkil o'ziga xos to'lov bo'lib, u xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas".

Bard va Pavlovalarning (2014) fikriga ko'ra, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma beznisni tashkil etishda renta to'lovlaring xususiyati shundan iboratki, ularni joriy qilish tabiiy resurslardan daromad olishni ko'zlamasdan, balki, tabiatdan foydalanuvchilar umumxalq mulki ob'ektlaridan oqilona foydalanishlari zarur".

Ushbu ilmiy tadqiqotimizda chuqur ilmiy mushohada, statistik guruhash, tizimli yondashuv, taqqoslash, ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, qiyosiy tahlil va omilli tahlilda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma beznisni tashkil usullaridan foydalangan holda, moliya tashkilot o'rtasida aloqlar o'rnatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Globallashuv jarayonida zamon talab va chaqiruvlaridan kelib chiqib, mavjud muammoni hal qilishda, O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi faoliyatida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish yo'naliishlarini ishlab chiqishda, qiyosiy, tizimli, iqtisodiy va statistik, monografik tadqiqot usullari, anketa so'rovi, guruhash, taqqoslash, induksiya, deduksiya, optimallashtirish usuli shuningdek, WEB-saytlar, kompyuter tarmoqlari va maxsus dasturiy paketlar bilan ishslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qo'shma biznesda bank va sug'urta guruhlari, shuningdek, bank xoldinglari bilan aloqa o'rnatish lozim. Bularning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda banklar va sug'urta kompaniyalari iqtisodiy va ijtimoiy hayotning boshqa har qanday sohalaridan o'z xizmatlaridan kafolatlangan iste'molchilar hisobiga o'z samaradorligini oshiradi. Bu bozorining bank va sug'urta segmentlarida biznesning tashkiliy shakllari sifatida banklar va sug'urta kompaniyalari faoliyati samaradorligini oshirish yo'llaridan biridir. Ammo bozori sub'ektlarining o'z raqobatbardoshligini oshirish vazifasi bizni ularning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning boshqa yo'llarini izlashga majbur qiladi. Moliyaviy xizmatlar har qanday modifikatsiyaga eng yaxshi yordam berishini hisobga olgan holda, iqtisodiy klasterlash jarayonlari birinchi navbatda moliya sektorida namoyon bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qo'shma biznes tashkil etishning bir necha muhim qadamlari mavjud:

1. Qo'shma biznesni boshlash uchun ishonchli sheriklarni topish juda muhimdir. Sheriklar, bir-biriga qo'shimcha qo'llab-quvvatlash, ma'lumot almashish va qo'shimcha resurslarga ega bo'lishadi.

2. Biznes reja va strukturasini belgilash juda muhimdir. Bu qadamlar o'z ichiga biznesning maqsadlarini, mahsulot yoki xizmatlarini, sotish va marketing strategiyalarini, ish tartibi va boshqalar kabi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

3. Sheriklar orasida to'g'ridan-to'g'ri hisoblashish, bu biznesning maqsadlari, moliyaviy kiritishlar, ish tartibi va boshqa kritik masalalarda ishonchli sheriklar orasida to'g'ridan-to'g'ri hisob-kitoblar juda muhimdir. To'g'ri tartibda va o'zlashtirilgan shaklda o'tkaziladigan muzokaralar va muhokamalar, qo'shma biznesni rivojlantiradi.

4. Qo'shma biznesda birgalikda ishslash va qo'shimcha qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ish olib borish jarayonini sodda va samarali bo'lishi uchun biznesning maqsadlariga mos keladigan resurslar, texnikaviy yordam va boshqa imkoniyatlardan foydalinish kerak.

5. Qo'shma biznesni tashkil etishda huquqiy masalalar juda muhimdir. Sheriklar o'rtasida tuziladigan shartnoma, hisob-kitob va boshqa huquqiy masalalar ko'zdan kechirilmagan holda to'g'ri va o'zlashtirilgan shaklda o'tkazilishi kerak.

Bu qadamlar biznesni boshlash uchun o'z navbatida muhimdir, lekin muvaffaqiyatli qo'shma biznesni tashkil etishda istiqbolli strategiyalar, samarali menejment va amalda sodda va samarali ish olib borish kritik ahamiyatga ega.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni klasterlashda qo'shma biznesni tashkil etishning asosiy shakli moliyaviy bozorning turli segmentlaridan yoki undan a'zo firmalarning integratsiya shakli. iqtisodiyotning turli segmentlari va tarmoqlarini birlashishidir. U ushbu sub'ektlarni raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning ixtiyoriy klasterlash shaklida hamkorligi yoki bir firmanın boshqa bir firmanın faoliyatiga ixtiyoriy ravishda, lekin ko'pincha uni o'tkazishning agressiv shaklida kirib borishi orqali amalga oshiriladi (Гайсина, 2020).

Biroq, klasterlash doirasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni birlashtirish varianti ularning o'zaro ta'siri modeli bilan belgilanadi. Buni amalga oshirishning ixtiyoriy shakli bilan qo'shma biznes ishtirokchilari faoliyatini birlashtirishning eng mashhur shakllari orasida, tashabbuskor tomonidan taqsimlash to'g'risidagi shartnoma asosida qurilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zaro hamkorligi strategik alyans biznes modelini tashkil qiladi.

Strategik alyans – bu iqtisodiy va sohani yaxshilash, bir-birlariga yordam berish va ko'p tomonidan foydali hamkorlikni o'z ichiga olgan iqtisodiy tuzum hisoblanib, strategik hamkorlikdan qat'iy nazar, iqtisodiy shartnomalar orqali yoki qo'shimcha asoslar asosida iqtisodiy faoliyatni bir-biriga birlashtirishdir.

Klasterlashda burch va kuchlarni bir-biriga qo'llab-quvvatlash uchun ixtiyoriy mablag'lar, xodimlar, texnologiyalar, bilim va tajribani almashishni o'z ichiga oladi.

Strategik alaynsning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1. Bozorda ko'p tomonidan foya olish uchun iqtisodiy, texnologik yoki boshqa yo'nalishda birlashuvni tashkil qiladi.

2. Uzluksizlik va ixtisoslashish orqali sub'ektlar o'zlarining iqtisodiy va boshqa resurslarini qo'llab-quvvatlaydilar. Resurslarni o'zlashtirishda bir-biriga yordam berish uchun qo'llaniladigan iqtisodiy tuzumlar va texnologiyalarga ega bo'lishi kerak.

3. Ko'proq rivojlanish va o'zlashtirish uchun, qatnashuvchilar o'rtasidagi ko'plab rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Ular o'zlarining sifatini oshirish, yangi bozorlarga kirish va rivojlanish uchun o'zaro ishonch hosil qilish kerak.

4. Risklar va imtiyozlar bo'lgan birlashishda sub'ektlar o'rtasidagi risklarni birlashtirish va imtiyozlar olish uchun yordam berishni ta'minlashi lozim. Bu katta mablag'lar, risklar va imtiyozlar birlashtirilgan holda, yangi bozorlarni ekspluatatsiyaga olish va rivojlanishda ko'proq samarali bo'lishga yordam beradi.

Strategik alaynsning yaratilishi va amaliyotda qo'llanilishi har bir tashkilot uchun maxsus holatga bog'liq bo'ladi, ammo umuman o'rtacha maqsadlar strategik alaynsning ko'proq foydalari va yaxshiliklarini tushunishda yordam beradi.

"Strategik alyans" hamkorligi asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorligi, qo'shma korxona doirasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning, shu jumladan moliya bozorining turli segmentlaridagi va aniq moliyaviy mahsulotlarni etishtirib chiqaradi.

Eksportni rivojlantirishga qaratilgan savdo-eksportni qo'llab-quvvatlash va biznes tuzilmalarini rivojlantirish bo'yicha davlat muassasalari o'rtasida yaqin hamkorlik qilish zarurati mavjud. Istiqbolli jihatlardan yana biri eksport xizmatlari ehtiyojlariga javob beradigan milliy raqamli platformani yaratish hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot platformalarining rivojlanishi ko'plab yangi imkoniyatlarni yaratishi mumkin. Raqamli platformalarning rivojlanishi eksport bo'yicha muammolarni hal qilishda, shu jumladan, iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish bilan bog'liq holda amalga oshishi mumkin. Bu iqtisodiy va ijtimoiy natijalarni yaxshilashga yordam berishi hamda innovatsiyalar va mahsuldarlikni oshirish uchun harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Platformalar tomonidan taqdim etilgan infratuzilma aloqa, operatsiyalar, ma'lumot almashish va hamkorlik samaradorligini oshirishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi mahalliy firmalar raqamli platformalar tomonidan taqdim etilgan raqamli xizmatlardan foydalana olishsa, sezilarli foya olishlari 17 mumkin. Raqamli

platformalar an'anaviy bitimlarga nisbatan tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi mumkin, shuning uchun, ayniqsa, mikrofirmalar hamda kichik va xususiy tadbirkorlar uchun ichki va tashqi bozorda keng imkoniyatlar yaratadi.

Bank, sug'urta, investitsiyalarni yaratishga qaratilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorligi asosida yagona brenddan foydalanishga undaydi. Moliya va supermarketi doirasida ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Yuqorida sanab o'tilganlardan ajralib turadigan "xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro ta'siri, uni amalga oshirishning agressiv shaklida amalga oshiriladigan va birlashuv tashabbuskorining passiv ishtirokchisining faoliyatiga kirib borishiga asoslangan" modelidir.

Xulosa va takliflar.

Biznes yuritishning yangi shakllari va modellari, shuningdek, raqamli iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorligi formatlarida raqamlashtirish va uning mahsulotlarining ijobjiy ta'siridan foydalanishni hisobga olgan holda vujudga keladi.

Biznes yuritishning bunday yangi shakllarini klassterlash yanada chuqurroq o'rganish va raqamlashtirish samaradorligini oshirish omili sifatida ko'rib chiqish uchun uning bozoriga ta'siri xususiyatlarini o'rganish zarur. Bunda yangi elektron ma'lumotlar bazasini qo'llashning asosiy yo'naliши uning asosida ma'lumotlarga asoslangan biznes-tizim modellarini ishlab chiqishdan iborat (Couldry, Powell, 2014).

Tabiiyki, yanada murakkabroq raqamlashtirish mahsulotlari har qanday darajadagi iqtisodiy konvergentsiya jarayonlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega (Jo'rayev, 2013). Bu "Qo'shma biznes samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan raqamlashtirish mahsuloti" mezoniga muvofiq iqtisodiy konvergentsianing ma'lum darajasida amalga oshirilgan biznesga eng katta ijobjiy ta'sirni eng murakkab raqamlashtirish mahsuloti ta'minlaydi, deb ishonishga asos beradi.

Adabiyotlar/Litteratura/Reference:

- Couldry N., Powell A. (2014) *Big data from the bottom up //Big Data & Society*. –T. 1. №. 2. S. 277. Gulyamov S.S., Shermuxamedov A.T. (2018) *Development of digital economy in the republic of Uzbekistan. VII Uzbek- Indonesian Joint international scientific and practical conference "Innovative development of entrepreneurship" with the framework of scientific and research project" Global economic challenges and national economy development" Tashkent- Jakarta, September.-180-183 p.*
- Ergashov Y.I. (2024) "Viloyatda dehqon xo'jaliklari faoliyatining rivojlanish mexanizmining statistik tahlili", "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" №2 sonida 72-82-betlar.
- Jo'rayev T. (2013) *Soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida*. //Toshkent haqiqati. yil 23 sentyabr.
- Mukhitdinov Kh.S., Rakhimov A.N. (2020). *The forecast for the development of the public services sector. Scopus, Solid State Technology, December 2020, Vol 63, № 6*
- Rakhimov A. N., Makhmatkulov G. K., Rakhimov A. M. (2021) *Construction Of Econometric Models Of Development Of Services For The Population In The Region And Forecasting Them //The American Journal of Applied sciences*. – T. 3. – №. 02. – C. 15-42.
- Rakhimov, A., Ravshanova, M., & Alieva, M. (2023). *Econometric analysis of increasing efficiency of industrial enterprises. In E3S Web of Conferences (Vol. 458, p. 04004). EDP Sciences*.
- Raximov A.N., Ergashov Y.I. "Dehqon xo'jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar", "Экономика и социум" №3 (106)-2 2023 255-262-bet.
- Бард В., Павлова Л. (2014) Налоги в условиях экономической интеграции. //. -М.: "Кнорус". С.63
- Гайсина Д.В. (2020) Трансформация современных бизнес-моделей в сторону экосистем: доклад / Шестая конференция «Проектирование бизнес-архитектур 2017», 2017. [Электронный ресурс] URL: (Дата обращения 10.07.2020).